



“QO‘SHIMCHA VA QAYTA EKSPERTIZA TAYINLASH – EKSPERT XULOSASINING ISHONCHLILIGINI BAHOLASH USULI”

Boysafarov Ravshanbek Baxtiyor o‘g‘li

IIV Akademiyasi Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim fakulteti tayanch
doktorantura doktoranti kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15560680>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma‘qullandi: 28- May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

axborot texnologiyalari,
ekstremizm, internet,
kiberxavfsizlik, ijtimoiy
tarmoqlar, kiberterrorizm.

ABSTRACT

Maqola axborot texnologiyalari sohasida ekstremizm hodisalarining ko‘payishiga bag‘ishlangan. Zamonaviy texnologik innovatsiyalar rivojlangan davrda, internet va ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik g‘oyalarni tarqatish uchun yangi kanal sifatida keng foydalanilmoqda. Bu maqolada ekstremizmning axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari, ularning jamiyatga ta‘siri, shu jumladan yuksak texnologiya vositalari orqali terrorizm va boshqa noqonuniy faoliyatlarni tashkil etish xavfi tahlil qilinadi. Maqolada ekstremizmga qarshi kurash choralarini takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash strategiyalari va kiberfazoda ekstremistik elementlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha takliflar beriladi. Alohida e‘tibor axborot texnologiyalarini ekstremizmdan saqlashda davlat, jamiyat va texnologik kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlik ahamiyatiga qaratilgan.

Yurtimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilib, unda zamon talablaridan kelib chiqqan holda huquq normalari yaratilmoqda. Xususan, xalqaro normalar va standartlar talablarini hisobga olgan holda sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning malakali sud-ekspertiza xulosalariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, sud-ekspertlik faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirib borish, barqaror va ilmiy talabga javob beradigan sud ekspertizasi tizimini shakllantirish, sud jarayonlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish hamda sud ekspertlarining xolisligi va mustaqilligini ta‘minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yildagi 5 iyuldagi PF-6256-sonli Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi [1].

Bundan ko‘rinib turibdiki, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ish yuzasidan ekspertning rasmiylashtirgan xulosalarini dalil sifatida tekshirishda, ular tayinlangan qo‘shimcha va qayta ekspertiza to‘g‘risidagi chiqargan qarorlari muhim hisoblanadi.

Ma‘lumki, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 176-moddasiga muvofiq ishni sudga qadar yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan ekspert xulosasini dalil

sifatida baholashi uchun undagi bo'shliqlarning mavjudligi, xulosa asoslantirilmagan yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganligi, ekspert tomonidan ekspertizani o'tkazishda protsessual qoidalari jiddiy buzilganligi mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan tekshirish uchun qo'shimcha va qayta ekspertiza tayinlaydi1.

Vaholanki, jinoyat ishlari yuzasidan ishni yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan qo'shimcha va qayta ekspertiza tayinlashi uchun esa uning chiqargan qarori asoslantirilgan bo'lishi lozim.

Bu esa, isbotlovchi subyektlarining asoslantirilmagan qo'shimcha va qayta ekspertiza tayinlash to'g'risida chiqargan qarori ekspert tomonidan tadqiqot o'tkazilmasdan ishni ijrosiz qaytarishiga sabab bo'ladi.

Kўshimcha va qayta ekspertiza tayinlashning asoslarini farqlashda bu borada tadqiqot olib borgan olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarni ham e'tiborga olish muhim hisoblanadi.

А.Н. Никуленконинг фикрича, жиноят-процессуал назариясининг анъанасига кўра, такрорий ва кўшимча экспертизалар ўтказилиши эксперт хулосасининг ишончилигини текшириш усуллардан бири ҳисобланади .

А.В. Кудрявцева эса, эксперт хулосасининг тушунарсиз ёки тўлиқ эмаслиги, кўпинча унинг асослиги ҳамда тўғрилигига шубҳа пайдо бўлишига олиб келиши мумкинлигини айтиб ўтган. Ўз навбатида, эксперт хулосасининг тушунарсизлигига субъектив ва объектив омиллар сабаб бўлади. Эксперт хулосасига исботловчи субъектларнинг (терговчи, суриштирувчи юритувчи шахс, судья) тушунмаслигига махсус билимлар соҳасида қўлланилган терминология, малакасининг пастлиги, эксперт хулосасидаги айрим қоидаларини нотўғри талқин қилишидан келиб чиқади (объектив омил). Эксперт хулосасининг ташунарсиз бўлишига фойдаланилган техника ва методикаларга сабаб бўлиши мумкин. Эксперт хулосада учрайдиган камчиликларни аниқлашда экспертни сўроқ қилиш орқали бартараф этиш мумкин. Агарда, сўроқ пайтида хулосадаги камчиликлар бевосита тадқиқотни ўтказиш билан боғлиқ эканлиги аниқланса, бу ҳолда кўшимча эмас, балки такрорий экспертиза тайинланиши керак .

Бу борада И.Л. Петрухин, И.Б. Михайловскаялар ҳам, кўшимча экспертизани янги экспертизадан фарқлаш лозимлигини таъкидлашган: "Янги экспертизани кўшимча экспертиза билан фарқлашда бевосита, бирламчи экспертизага боғлиқ бўлади. Эксперт тадқиқотнинг бир қисмини аллақачон ўтказган бўлиб, уни такрорлаш ёки ўз хулосасида қайд этиши шарт эмас. Шунингдек, экспертга кўшимча ўқ ва патронлар тақдим этилса, илгари текширилган тўппончанинг хусусияти унга маълум бўлиб ва бу бирламчи экспертиза хулосасида келтирилган бўлади. Агар экспертга янги яъни, бирламчи тадқиқотига алоқаси бўлмаган вазифа берилган бўлса (масалан, тергов тусмолида яна бошқа қурол бўлса), бу ҳолда янги мустақил экспертиза бўлади "

Шунингдек, С.В. Немира кўшимча экспертизани қайта экспертизадан фарқлаш масаласига қўйидагича тўхталган: "Агар эксперт хулосаси етарлича тушунарли бўлмаса, унинг ишончилигига шубҳа туғдирмаса, уни сўроқ қилиш йўли билан бартараф этиб бўлмайдиган бўлса, шунингдек жиноят ишининг илгари текширилган ҳолатлари бўйича янги саволлар туғилса, шу ёки бошқа мутахассисга кўшимча экспертизаси тайинланиши мумкин "

Таҳлиллардан ишни юритишга маъсул бўлган шахслар томонидан қўшимча экспертиза бевосита бирламчи экспертиза хулосасига алоқадор бўлган янги саволлар туғилсагина тайинланиши мумкинлигини қайд этиш мумкин.



INNOVATIVE
ACADEMY